

Musiqqa asboblari – cholgʻular



Asbob-uskunalar insonlarga uyda va ishdagi kerakli koʻmakchilardir.
Musiqqa asboblari, odatda, cholgʻular deb ataladi.



Kimda qanday asbob-uskuna va cholgʻu borligini ayting.



Quyidagi asboblarni qaysi kasbga tegishli ekanini aniqlang.



Musiqani ovoz yoki musiqiy cholg'ular yordamida ijro etish mumkin.

Sozanda – musiqiy cholg'ularda musiqa ijro etuvchi inson.

Xonanda – qo'shiq ijro etuvchi san'atkor.





1. Siz qo'shiq aytishni yoqtirasizmi?
2. Siz biror musiqiy cholg'u chalishni bilasizmi?



Topishmoqlarning javobini toping.

1

Gardish kabi dumaloq,
Kumush halqali biroq.
Qo'shiq-kuyga jo'r bo'lar,
Ijrochiga yo'l bo'lar.



2

Yog'och qushim qo'limda,
Turli kuyda sayraydi.
Quloqlarin burasam,
Ko'nglim yana yayraydi.



3

Men bilan yanada zavqli sayohat,
Davrani qizdirish mengadir odat.
Shaklim – quyoshsimon, sho'xchan
yangrayman,
Barchani quvnatib, o'zim yayrayman.





1. Qanday musiqiy cholg'ularni bilasiz?
2. Uyingizda qanday musiqiy cholg'ular bor?



**Cholg'ularga qarang.
Ulardan qaysilari sizga tanish?**



dutor



doira



g'ijjak



trubá



saksofón



gitára



surnay



do'mbira



árfa



barabanlar to'plami



sintezátor

